

XALQ CHOLGULARI ANSAMBLARIDA MUSIQA CHOLG'ULARINING O'RNI

Dadaboyev Xasanboy Maratovich

Andijon davlat universiteti

Musiqiy ta'lim kafedrasiv.b.dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12598055>

Annotatsiya. maqolada musiqiy cholg'u asboblari, ularning xalqlar xayotidagi o'rni va ahamiyati alohida e'tiborga loyiqli yoritilgan. Musiqiy cholg'u asboblar ko'p asrlar davomida ma'lum ma'noda shaklan takomillasha borgan bo'lsada, mazmunan o'z qiymatini saqlab qola olganligi. Yaqin - yaqingacha milliy cholg'u asboblariga nisbatan e'tibor susaygandek bo'lib, milliy an'ana va qadriyatlarimiz tiklangach, bu jarayon shunday jadal surratlarda rivojlanib ketganligi xaqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zları: qadriyat, cholg'u ijrochiligi, xalq cholgulari ansambl, zamonaviy ansambl.

THE ROLE OF MUSICAL INSTRUMENTS IN FOLK INSTRUMENT ENSEMBLES

Abstract. The article highlights musical instruments, their place and importance in the life of peoples, which deserve special attention. The fact that musical instruments could retain their value in content, although in a certain sense they were formed over many centuries. Until recently, attention to national instruments seemed to be waning, and as our national traditions and values were restored, it was reported that this process was developing at such a rapid pace.

Keywords: value, instrumental performance, folk instrument ensemble, modern ensemble.

РОЛЬ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В АНСАМБЛЯХ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Аннотация. В статье освещаются музыкальные инструменты, их место и значение в жизни народов, заслуживающие особого внимания. Тот факт, что музыкальные инструменты могли сохранять свою ценность в содержании, хотя в определенном смысле формировались на протяжении многих веков. До недавнего времени внимание к национальным инструментам, казалось, ослабевало, и по мере восстановления наших национальных традиций и ценностей сообщалось, что этот процесс развивался в таких быстрых темпах.

Ключевые слова: ценность, инструментальное исполнение, ансамбль народных инструментов, современный ансамбль.

Xalqlarning madaniy qadriyatları ommalashib kelayotgan musiqiy merosni yaratilish va rivojlanish tarixiga nazar solmasdan turib bugungi kunda biror bir amaliy natijaga erishish mushkul.

Bugungi kunda o'zbek xalqining milliy o'zligini anglash jarayoni jadallashishi munosabati bilan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyasining ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida shakllangan ma'naviylik va ma'rifiylik fazilatlarini yosh avlod qalbiga singdirishda madaniyat va san'at muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois jamiyatda ma'naviy va madaniy qadriyatlarni mustaxkamlanishi yosh avlodni milliy merosga, tarixiy an'analarga xurmat, Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda samarali omillardan biri hisoblanadi.

Shu ma'noda musiqiy cholg'u asboblari, ularning xalqlar xayotidagi o'rni va ahamiyati ham alohida e'tiborga loyiqdir. Musiqiy cholg'u asboblari ko'p asrlar davomida ma'lum ma'noda shaklan takomillasha borgan bo'lsada, mazmunan o'z qiymatini saqlab qola olgan. Zero, shu o'zgarishlar bois bunday cholg'u asboblarning dunyo miqiyosida ahamiyati oshishiga salmoqli hissa qo'sha oldi.

Yaqin - yaqingacha milliy cholg'u asboblariga nisbatan e'tibor susaygandek bo'ldi, milliy an'ana va qadryatlarimiz tiklangach, bu jarayon shunday jadal surratlarda rivojlana bordi. Shuni ta'kidlash joizki, har qanday sharoitda ham musiqa bizning xalqimiz qalbiga oshno bo'lib, sayqal bera olgan.

Hech mubolag'asiz aytishimiz mumkinki, radioning oltin xazinasidan joy olgan musiqiy me'rosimizning ushbu namunalari kelajakning har bir yosh avlodiga an'anaviy ijro masalasida dasturi amal bo'lib, xizmat qilib keladi va shu yo'sinda davom etadi.

Haqiqatan ansambl ijrochiligining nafosatli xususiyatlarini va uning turli tarkiblariga tuzilishi imkoniyatlarini, O'zbekiston davlat konservatoriyasida 1972 yildan boshlab, o'z faoliyatlarini boshlagan ilm dargohi, yani an'anaviy ijrochilik kafedrasi uzoq yillar davomida shu kungacha o'z faoliyatini ko'rsatib kelmoqda.

Darhaqiqat, jonli ijroda musiqa cholg'ular ovozlarini mutanosib holda tarranum etishlari uchun shunga mos cholg'ular toplash lozim. Shunday bo'lsinkim, nay va g'ijjak sozi bilan birgalikda dutor va tanbur ovozlari ham ansambl ijrosida eshitilib tursin. Aytish joizki, ansambl ichrochilagini asosiy mohiyati ham shundadir.

Biz yuqorida murojat etgan Fitrat domlaning fikrlari ham, hazrat Alisher Navoiyning keltirgan she'riy misollarini zaminida ham ana shu ansambl ijrosidagi turfa ovozlarni jozibasi hamda mutanosibligi turadi. Biz doimo ijroda ana shu inson ruhiyatiga bir me'yorda ta'sir etuvchi ovozga erishadigan ansambllarni tuzishimiz maqsadga muvofiqdir. Tuzilgan ansambl tarkibida sozlarning sonidan qat'iy nazar, asosiy e'tibor ularning tarranum (bir me'yor) sifatiga qaratilishi lozim.

Ayni paytda an'anaviy ansambllar vohaviy, uslubiy xususiyatlar doirasida shakllanib borayotganligini guvohimiz. Bunga Buxoro, Xorazm, Toshkent – Farg'ona, Samarqand, Andijon viloyatlarida faoliyat olib borayotgan maqom ansambllarini misol qilish mumkin. Aytish joizki, ansambl ijrochiligi juda sermashaqat va mushkil jarayonni o'z ichiga oladi. Uni yoshlar amaliyotiga singdirish sharaflı ishlardan biri hisoblanadi.”¹

“Yuqoridagi bir nechta allomalarining fikridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki musiqa va uni kelajak avlodga o'rgatish shaxs kamolotini tarbiyalashda asosiy vazifalardan biri bo'lib hizmat qiladi. Musiqa sadolari eshitgan inson ongini va tafakurini rivojlantiribgina qolmasdan ma'lum ma'noda orzu va maqsadlar uyg'ota oladi. Cholg'u asbobida ijro eta oladigan musiqachi o'zining olamini ham yarata oladi. Ijro etiladigan kuy har bir insonga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Jumladan tinglovchining hayotiy kechinmalarini, esga soladi, qalbga sokinlik, ruxiyatga poklik, mo'tadillik baxsh etadi, fe'l-atvoriga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.”²

¹ Odilov A.O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. O'qituvchi.T;1995, 85-b

² Raimova D.M. O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqaning ro'li, 'Modern science and research' Vol.3,2023.139-b

Zero, kelajagi buyuk davlatning kelgusida hozirgi yosh avlodni benazir ustozlar sifatida shakllana borishida ushbu tarbiya ham asos bo‘lib xizmat qilishi begumondir.

Hozirgi zamon o`zbek musiqa ijodiyoti serjabha va ko`lami keng, usluban boy va rang-barang, rivojlangan va shiddatli jarayon sifatida gavdalanadi. Zotan, musiqiy madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob an`analarga ega bo`lgani holda, zamona zayli bilan yangidan - yangi yo`nalish, shakl, janr, uslublar bilan yanada boyib bormoqda³

Xalq cholgulari ansamblari xalq cholg’ulari ijrochilik yonalishidagi cholg’u sozlardan tashkil topadi. Bu cholg’u sozlarga asosan nay, chang, prima rubob, qashqar rubob, avg’on rubob, dutor prima, dutor alt, dutor bas, dutor kontrabas, g’ijjak, g’ijjak alt, g’ijjak bas, g’ijjak kontrabas, doira, nog’ora kabi cholg’u sozlar ba’zida tanbur, sato, qo’shnay kabi cholg’ulardan iborat bo’ladi. Bundan tashqari bir turg mansub cholg’u sozlaridan xam ansambl tashkil qilish mumkin, misol uchun, dutorchilar, rubobchilar, avg’on rubob, qashqar rubob, doirachilar ansambli va xokazo ansamblar tashkil etish mumkin.

Xalq cholg’ularini tashkil etishda ansambl raxbari tarkibga axamiyat berishi lozim. Bunda tarkibga mos asar tanlanadi yoki asarni tarkibga moslashtiradi misol uchun: kamer cholg’ulari aasarlaridan foydalansak, shtrihlarni o’zgartirish darkor, bunda kamer cholg’uda legato bo’lsa, mizroqli cholg’ularda tremologa aylantirish mumkin va shunday xolatlarni xalq cholg’u asboblariga moslashtirib borish mumkin. Ansambl tashkil qilishda ansambl raxbaridan akademik ijrodan, ustoz shogird yonalishidan, estradada va badixa(improvizatsiya) xolatlarida ishslash imkoniyatlari mavjud.

Ansamblida ijro mahoratini egallash, avvalo, to‘g’ri o ‘tirish, cholg’u sozini to‘g’ri tutish, tovush chiqarish madaniyatini egallab borish, ijro harakatlarini to‘g’ri shakllantirish hamda jamoaviy ijro qoidalariga to‘liq rioya etishlikni nazarda tutadi:

— ijro paytida gavdani shunday tutish lozimki, toki u ijrochining barcha harakatlari uchun qulay va tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘lsin;

— suyanchiqqa suyanmasdan, o‘rindiqning yarmida o‘tirish odat qilinadi, sozandalarning chap oyoqlari oldinroq o ‘ng oyoqlari esa orqaroq joylashadi;

— o ‘ng qo‘lning to‘g’ri joylanishiga, ijro harakatlarining erkin bolishiga erishiladi;

— chap qo‘l soz dastasini siqmasligi (rubob, avg’on rubobi, soz, g’ijjak, dutor sozlarida), qoli kafti dastaga tegmasligi, erkin bo‘lishiga harakat qilinadi;

— sozandalar kuyni boshlashda diqqat bilan o‘tirishlari, boshlovchi sozanda yoki doiraning auftakli bilan birligida boshlashlari zarur;

— kuyni tamomlashda ham xuddi shunday doira usuliga muvofiq yoki umumiyligi ansamblning bir nafasda tamomlashiga diqqatni qaratish loziin;

— ansambl ijrochiligidagi jamoaviy ijro madaniyatiga rioya qilish, ijro paytida diqqat bilan o ‘tirish nafaqat o ‘z sozi tovushi, balki umumiyligi ansambl tovushini va shunga mos ravishda o ‘z sozi tovushini nazorat qilib borish lozim;

³ Ziyavutdinova Z.U. Cholg’u ijrochiligi va ansambl. O’quv qo’llanma. Farg’ona nashriyoti 2022,11-b

— ijro uchun qulay va to‘g‘ri holatni tanlash, qo41arni erkin tutish, tovush chiqarish madaniyatini to‘g‘ri o‘zlashtirib borish har bir soz ijrosi uchun umumiy talablar mazmuniga kiradi.⁴

Zamonaviy ansamblarda qaysi turda bo‘lishidan qat’iy nazar (xalq cholq‘ulari , milli ansambl, kamer ansambl damli-zarbli ansamblar va xokazo) zamonasiga mos holda yangi takomillashtirilgan cholq‘ular va zamonaviy bastakorlar qarashlariga mos yondashuv nazarda tutiladi. Xozirgi kunda milliy ansambllarimiz tarkibida electron cholq‘ular, sintez klavishshalar, elektro gitara, elektro bas gitara xamda zarbli cholq‘ulardan foydalanishini va asar ijrosida milliy ansambllarimiz ikki ovozli xamda kop ovozlik jumlalardan, jaz rok janriga mos sinkopalardan foydalangan jumlalarni ko‘rishimiz mumkin. Xalq cholgu ansambllarida xam xuddi shunday elektr cholq‘ulardan foydalanish urfga kirib bormoqda. Asar ijrosida zamonaviy improvizatsiyadan foydalanishini muzatishimiz mumkin. Butkul zamonaviy ansambllarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak hozirgi davrda yangi yonalish bo‘lgan etno-jaz (etnik holatda) tarkibida ansambl ko‘rinishida butun xalqlarning cholq‘ularini Estrada cholq‘ularida uyg‘un uchratishimiz mumkin. Misol uchun:

Estrada ansamblida (bas gitara, elektro gitara, klassik gitara, sintez klavish,dryums perkusiya) hind *ragasini setir* cholq‘usida kuzatish mumkin, Azarbajyon *mug’omini tor* cholq‘usida ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek *magomini tanbur* cholq‘usida kuzatishimiz mumkin va xokazo.

Zamonaviy ansamblida asarga yondashish tarkibiy holatga bog‘liq emas. XXI asrga kelib jaxon klassikasini simfonik orkestrlar ijrosidagi partiyalarni zamonaviy ansamblarda moslashtirib ijro etilmoqda, bunga misol Motsart, Bax, Vibaldi va boshqalar ko sertlarini rok ansabllar elektro gitarada distorshen(metalika tovush) tovushida ijro etmoqda.

Xulosa qilib aytganda , o‘tmish tarixga bir nazar solsak Abu Nasr Farobi, Darvesh Ali Changiy, Urmaviy kabi allomalar davridan mukammal shakllangan. Mumtoz asarlarimizga nay, chang, ud, tanbur, dutor,doira kabi cholq‘ularda jo‘r bo‘lingan.

“Musiqa cholq‘u asboblari ba’zida xalq va professional (orkestr) turlarga ham bo‘linadi. Orkestr cholq‘ulari kompozitor tomonidan yaratilgan, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan ko‘p ovozli musika asarlari ijrosiga moslashtirilgan. Xalq cholq‘ulari esa ma’lum millat (elat) monodik musiqa ijrosi uchun qo‘llaniladi va musiqiy tovush quroli bo‘lish bilan birga, moddiy madaniyat mahsuli hamdir.”⁵

Demak, xalq cholq‘u asboblari ansamblarini boshqarishda bo‘lajak, talabalarni musiqiy jamoaga rahbarlik qilishda o‘rgatayotgan asarni barcha nyuanslarini o‘rganib dirijorlik jestlar yordamida asarning musiqiy ifodasi, badiiy obrazi, jestlar yordamida jamoani diqqatga tayyorlash, auftakt yordamida ijroni boshlash, asarni yakunlash kabi xarakatlarni imo-ishora va dirijorlik tehnikasi yordamida ko`rsata olishi maqsadga muvofiqdir.⁶

Zamonaviy ansamblarni rivojlanish tarixi XX asrdan ikkinchi yarimidan insoniyatning ijtimoiy taraqqiyotiga uzviy bog‘liq. Bunda elektr kashf qilinishiga , ovoz kuchaytirilishini paydo

⁴ H. Nurmatov, O. Nazarov, Sh. Janaydarov. Cholg‘uchilar ansambl., T.; 2005,45-b

⁵ Ziyavutdinova Z.U. “Milliy cholq‘u ansamblar tashkil etilishining ilmiy nazariy va metodologik asoslari”,

“Modern science and research” Vol.3,2023.144-b

⁶ Raimova D.M “Dirijorlik ” o‘quv qo‘llanma. Farg‘ona nashriyoti 2022,32-b

bo'lishiga sabab boldi, ansambl ijrosida 5–6 kontrabaschini o'rniga 1 nafar bas-gitara cholg'usini o'rnini bosa oladigan holatga keldi. Shu tarzada klavishli sozlarni (fortepiano, organ, royal)o'rniga elektro- klavishlar o'rnini egalladi.

Urma zarblilarda xam oldingi tarkibda katta barabanda alohida cholg'uchi, kichik barabanda alohida cholg'uchi, krash perkusiyalarni alohida ijrochi bo'lgan, zamonaviy ansamblida urma-cholg'ularni bitta cholg'u egalladi.

Elektro-gitaralar klassik gitaralar o'rnini egalladi. Bu omillar Estrada yonalishida xozirgacha kelgan oqimlar zamonaviy musiqani rivojlanishiga olib keldi.

REFERENCES

1. Odilov A.O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. O'qituvchi.T;1995, 85-b
2. H. Nurmatov, O. Nazarov, Sh. Janaydarov. Cholg'uchilar ansambli., T.; 2005
3. Raimova D.M. Dirijorlik . O'quv qo'llanma. Farg'ona nashriyoti 2022,32-b
4. Ziyavutdinova Z.U. Cholg'u ijrochiligi va ansambl. O'quv qo'llanma. Farg'ona nashriyoti 2022,11-b
5. Raimova D.M. O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqaning ro'li, *International scintifi jurnal "Modern science and research"* Vol.3/ ISSUE 4/UIF;8,2/2023Vol.3,2023.139-b
6. Ziyavutdinova Z.U. "Milliy cholg'u ansamblar tashkil etilishining ilmiy nazariy va metodologik asoslari", *international scintifi jurnal "Modern science and research"* Vol.3/ ISSUE 4/UIF;8,2/2023.144-b